

Djuraev Dusmurod Uralovich,

O`zbekiston davlat jahon tillari univrsiteti,
"Pedagogika va psixologiya" kafedrası professori,
pedagogika fanlari doktori, professor

XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON JADIDLARINING XALQ TA`LIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO`LIDAGI HARAKATLARI

UO`K: 912.4(075)

[HTTPS://DOI.ORG/10.34920/SO/VOL_2026_ISSUE_4_9](https://doi.org/10.34920/so/vol_2026_issue_4_9)

DJURAYEV D.U. XIX ASR OXIRI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON JADIDLARINING XALQ TA`LIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO`LIDAGI HARAKATLARI

Maqolada XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jadidlarining xalq ta'limini isloh qilish yo`lidagi harakatlari tahlil qilinadi. Jadid ma`rifatparvarlar tomonidan nafaqat ta`limni isloh qilish bo`yicha ko`rsatmalar beriladi, balki uni takomillashtirish mexanizmlari amaliyotda ko`rsatib beriladi. Jadidlar millat kelajagi uchun barcha ziyolilar xalq bilan birgalikda, bir yoqadan bosh chiqarib faoliyat olib borishlari o`ta muhimligi ta`kidlanadi. Turkiston jadidlari xalq va davlatchilik rivojining asosiy manbai savodli va ilmi xalq ekanligini yaxshi angladilar. Mustaqillikning ahamiyatini yaxshi tushungan ma`rifatparvarlar yurt ozodligiga erishishning asosiy manbai xalqni ma`rifatli qilish, xalq ta`limi jarayonini tubdan isloh qilish, uni takomillashtirish ekanligini keng targ`ib qildilar.

Tayanch so`z va tushunchalarlar: Turkiston, jadid, ziyoli, ma`rifatparvar, xalq ta`limi, yurt ozodligi, savodxonlik, maktab, madrasa, ta`lim muassasasi.

ДЖУРАЕВ Д.У. ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ДЖАДИДОВ ТУРКЕСТАНА ПО УЛУЧШЕНИЮ НАРОДНОГО ОБРАЗОВАНИЯ В КОНЦЕ XIX — НАЧАЛЕ XX ВЕКОВ

В статье анализируются усилия туркестанских джадидов по реформированию народного образования в конце XIX и начале XX веков. Джадиды не только дают указания по реформированию образования, но и демонстрирует на практике механизмы его совершенствования. Джадиды подчеркивают огромную важность совместной работы всех интеллектуалов с народом, с общей целью – ради будущего нации. Туркестанские джадиды хорошо понимали, что главным источником развития народа и государственности является грамотный и образованный народ. Джадиды, осознавая важность независимости, широко пропагандировали, что главным источником достижения свободы страны является просвещение народа, радикальная реформа и совершенствование процесса народного образования.

Ключевые слова и понятия: Туркестан, джадид, образованный, просвещенный, народное образование, свобода страны, грамотность, школа, медресе, учебное заведение.

DJURAEV D.U. ACTIVITIES OF THE TURKISTAN JADIDS TO IMPROVE PUBLIC EDUCATION IN THE LATE 19TH - EARLY 20TH CENTURY

The article analyzes the efforts of the Turkestan Jadids to reform public education in the late 19th and early 20th centuries. The Jadid Enlightenment not only gives instructions on reforming education, but also demonstrates in practice the mechanisms for its improvement. The Jadids emphasize the great importance of all intellectuals working together with the people, with a common goal, for the future of the nation. The Turkestan Jadids understood well that the main source of the development of the people and statehood is a literate and educated people. The Enlightenment, who understood the importance of independence, widely promoted that the main source of achieving the country's freedom is to enlighten the people, radically reform the process of public education, and improve it.

Key words and concepts: Turkestan, Jadid, educated, enlightened, public education, freedom of the country, literacy, school, madrasah, educational institution.

Kirish.

Dunyoning rivojlangan mamlakatlari xalq ta'limi tizimining mavjud holati va tarixi, Turkiston xalq ta'limining tashkil etilishi va boshqarilishi, aholi savodxonlik darajasining millat, davlat va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati jahon olimlarining doimiy tadqiqot ob'yekti bo'lib kelmoqda. XIX asr oxirlariga kelib mustamlaka Turkiston jadidlari xalq va davlatchilik rivojining asosiy manbai savodli va ilmi xalq ekanligini yaxshi anglar edilar. Mustaqillikning ahamiyatini yaxshi tushungan ma'rifatparvarlar yurt ozodligiga erishishning asosiy manbai xalqni ma'rifatli qilish, xalq ta'limi jarayonini tubdan isloh qilish, uni takomillashtirish ekanligini yaxshi anglar edilar. Shu sababli ular "qora xalqni oqartirmoq" yo'lida fidoyilik ko'rsatdilar. Ma'rifatparvarlar mustaqilligimizdan ajralishimizning asosiy sababi savodsizlikda ekanligini ta'kidlab, ushu muammo yechimini avvalambor xalq ta'limini isloh qilishdan izladilar. Ular xalq ta'limini isloh qilish lozim va mumkinligini nazariy asoslabgina qolmay, balki yangi usul maktablar tashkil etish, kutubxona, o'quv zallari ochish, kitob va darsliklar chop ettirish orqali bu borada o'z amaliy ishlari bilan o'rnak bo'ldilar¹. Jadidlarning Turkiston xalqiga ma'rifat tarqatishdagi xizmatlari beqiyosdir. Ular o'zlarining ilg'or fikrlari, ma'naviy-ma'rifiy ruhdagi, o'tkir publisistik maqolalari bilan millatni uyg'otishga, jaholat iskanjasidan ma'rifat yuksakligiga olib chiqishga intildilar. Yoshlar tarbiyasiga, maktablarni isloh qilishga katta ahamiyat qaratdilar. Jumladan, davrning yetakchi ma'rifatparvarlaridan Mahmudxo'ja Behbudiy "Padarkush" dramasi

orqali ilmsizlik oqibati xorlik ekanligini ko'rsatib berdi. Munavvarqori Abdurashidxonov esa 1903 yildan jadid maktablari ochib dars berish bilan birga "Adibi avval" (1907), "Adibi soniy" darsliklarini yozdi. Abdulla Avloniyning "Birinchi muallim" (1909), "Ikkinchi muallim" (1912) nomli darsliklari, "Turkiy guliston yoxud axloq", "Adabiyot yoxud milliy she'rlar" kabi qo'llanmalari ham ayni maktablar islohiga qaratilgan edi.

Davrning yetakchi ma'rifatparvarlaridan biri Mahmud Alizoda Toshkandiy o'zining "Milliy aloqa" (1916 yil) she'rida xalq ta'limini isloh qilish haqida shunday fikrlar bildiradi²:

*Bizda ko'p jahlu g'azab, arbobi g'aflat ichra biz,
Ma'rifat ilmu funun aylab kirom isloh qil...
To'y uchun sarf aylagaymiz necha yuz dinorlar,
Rusum deb isroflar ming-ming diram isloh qil.
Masjidu maktab madoris sori qilg'il nazar,
Onlari ilmu odobda muntazam isloh qil.*

Adabiyotshunos olim Nurboy Abdulhakim Munavvarqori Abdurashidxonovning: "Ey qaradoshlar, voy millatdoshlar!!! Ko'zimiz g'aflat uyqusidan ochib, atrofimizga nazar solmagimiz lozimdir. Har millat o'z saodati hol va istiqbolini (ng) muhofazatig'a birinchi vosita ilm o'lmakig'a qanoat hosil qilib, ilmu maorifg'a ortiq darajada ko'shish (harakat) qilgan bu zamonda bizlar bu g'aflat va jaholatimizda davom etsak, istiqbolimiz nihoyatda xavfli o'lub, hama olamg'a masxara

¹ Alimova D.A. Djadidizm v Sredney Azii. Puti obnovleniya, reformy, borba za nezavisimost // T.: "Uzbekistan", 2000. – B. 5.

² Djuraev D. Turkiston an'anaviy maktablari faoliyati tarixidan (XIX asr ikkinchi yarmi) // "Zamonaviy ta'lim" jurnali, 7-son, 2017. B. 17-23.

va kulgu o'lmog'imizda hech shubha yo'qdir"¹ – degan so'zlarini keltiradi. N.Abdulhakim holatni shunday izohlaydi: "Jaholat deganlari qachondir tarixda bo'y ko'rsatganu endi qaytib kelmasligi aniq bo'lgan hodisa emas. Taassuflar bo'lsinki, u har bir zamonda qaysidir ko'rinishlarda namoyon bo'laveradi. Millatni ich-ichidan yemiradi. Taraqqiyotdan necha yuz yillar orqada qolishiga sabab bo'ladi. Tanazzul girdobiga tortadi. Binobarin, har bir millatni, uning vakillarini jaholatdan qutqarguvchi yagona vosita – ilm va maorifdir. Kimki ilm va maorifga munosib darajada e'tibor bersa, shubhasiz, saodatga erishadi"².

Saidahmad Vasliy Samarqandiy "Himmat ur-rajjo" nomli maqolasida maktab va madrasalarning qurilish reja loyihasidan tortib, dars xonalarning ichki jihoz uskunalari gacha, dars necha yil bo'lishi kerak, bir kunda necha fan o'qitilishi zarur, talabalarning darslarni o'zlashtirishi va imtihon olish usuli qanday bo'lmog'i lozimligi haqida batafsil to'xtaladi. Turkiston ziyoli va ulamolariga quyidagi savollar bilan murojaat qiladi: "Muddati tahsil necha sana bo'lmog'i kerak? Har sanada necha oy tahsil ayyomi bo'lur? Har haftada necha kun dars o'qilur? Har tahsil kunlari necha dars o'qilsa nofi' bo'lur? Bir sana o'qitilmish kitobning necha darsg'a taqsim bo'lmog'i lozim? Har darsning miqdori necha satru va yoki necha sahifa bo'lmoq vojib? Shogirdlarning tushunmaktari lozimmu? Yoki darsxonaga kirib chiqsa bo'lurmi? Madrasalarg'a jahd ila shogirdni ma'lumotli qilmaktari vojibmu? Yoki kun o'tkarub, shogirdlarni boshqa ishlarg'a mardikor qilsalar joizmu? Ijzat olib xatmkarda bo'lmak uchun rusumiy darslarni bilmak, ulum va funung'a olim bo'lmak lozimmu? Yoki bir vaqti jamoag'a sherik al-dars bo'lib, kelib-ketib, uchto'rt so'm berib, mullajaloli javon bo'lsa kifoyami? Har kim o'z boshicha umr kechurub, vaqflarni yeb, mudarris men deb yursa bo'lurmu? Yoki ulug'ulamolarning hukumat taraflaridan nazorat va tahqiqi farzmi?"³.

¹ Abdulhakim Nurboy Ma'rifat nimadir. Jaholat nimadir? // Tafakkur. – Toshkent, 2005, 3-son. – B. 10-15.

² Abdulhakim Nurboy Biz qanday millatmiz? // Tafakkur. – Toshkent, 2005, 2-son. – B. 15.

³ Vasliy Saidahmad, //Al-Isloh, 1916 yil 5-son, 1915 yil 13-son.

Mavzuning dolzarbligi.

Millat kelajagi uchun g'oyat muhim bo'lgan mahalliy xalq ta'limini isloh qilish masalasidan davrning boshqa muallimlari ham befarq qolmadilar. Saidrasul Aziziy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Muhammad Rasuliy, Majid Qodiriy, Shokirjon Rahimiy, Abdulla Avloniy, Abduvohid Munzim, Sadridin Ayniy va boshqalar yangi usul maktablari uchun darslik va qo'llanmalar yaratishga harakat qildilar. Yangi usul maktablarida ta'lim jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga ta'lim metodikasining yetarlicha shakllanmaganligi, darsliklarning yagona adabiy til doirasida yaratilmaganligi, sinf-dars tizimining yetarlicha yo'lga qo'yilmagani kabi ko'plab omillar xalal berar edi. Milliy maktablarda yangi o'qitish uslubining joriy etilishi tarafdorlari bu masalalarni bir necha marta turli darajalarda muhokama qilishgan edi. 1910 yilning sentyabrda Munavvarqori Abdurashidxonov Turkistonda davlat darajasida umumiy o'quv dasturlari va darsliklarning joriy etilishini so'rab, maktablarda ta'lim islohotini amalga oshirish bo'yicha Davlat dumasiga ariza yubordi.

Xuddi shu masala 1914 yilning may oyida Shayxontohur dahasi qozisining uyida ilg'or ziyolilar tomonidan muhokama etildi. Yig'ilish ishtirokchilari yagona o'quv metodikasining joriy etilishi maktab ta'lim jarayoni muvaffaqiyatining hamda o'quvchilarni bir maktabdan ikkinchi maktabga o'tishidagi muammolardan xalos bo'lishining asosiy yo'li ekanligini ta'kidlashgan. Yig'ilishda yagona o'quv metodikasini ishlab chiqish hamda tatbiq etish bo'yicha mas'ul qo'mita xodimlari sifatida yangi usul maktab muallimlari: Munavvarqori Abdurashidxonov, Qori Samig' Ziyoyev, Shokirjon Muhammad Rasul, Abdulloh Avloniy ("Sadoi Turkiston" gazetasining korrektori) va rus-mahalliy maktab muallimi Abdul Majid Qori Qodiriylar tasdiqlandilar⁴.

Turkiston jadidlari ta'lim muassasalarida dunyoviy fanlarni joriy qilish bilan birga, an'anaviy fanlarni isloh qilishga ulkan hissa qo'shishgan, ilm olishni istagan kambag'al oilalarning farzandlariga katta yordam ko'rsatishgan. Ularning sa'y-harakatlari tufayli Toshkentda "Turon", Buxoroda "Tarbiyai atfol", Qo'qonda "G'ayrat" xayriya jamg'armalari va o'ndan ortiq noshirlik uylari, kutubxonalar tashkil etildi. Munavvarqori va Avloniy 1909 yilda ta'sis qilingan "Jamiyati xayriya" nomli birinchi xayriya

⁴ O'z.R. MDA, fond R-461, 1 jild, 1260 ish, 22 varaq.

jamg'armasining asoschilari bo'lishgan. Bu jamiyatning asosida, 1913 yilda Toshkentning ziyolilari hamda badavlat kishilari tarafidan "Turon" jamiyati tashkil etildi. Jamiyat negizida "Turon" drama-trup-pasi, "Turon" kutubxonasi va o'quv zali, "Turkiston kutubxonasi" nashriyoti ochilgan. Undan tashqari jamiyat negizida 1918 yilda "6-chi Turon" maktabi tashkil etilgan¹.

Ziyovuddin qori "Al-Isloh" gazetasida "Insonning bir necha vazifasi va saodati" sarlavhali maqola e'lon qilib, madrasa ta'limi islohi borasida o'z fikrlarini bayon etadi². Unga ko'ra, tahsil o'n besh yilga mo'ljallanib, yigirma bir xil fandan dars berish lozim. U bir yilda to'qqiz oy, haftasiga besh kun, har kuni ikki fandan o'qitishni zarur deb hisoblab, iqtidorli talabalar ta'limni o'n ikki yilda yakunlashini uqtiradi. Uning ta'kidlashicha: "Saidahmad Vasliy janoblari bir maqola yozib, ommaning sa'yu g'ayratini va ham fikrlarini "Al-Isloh" vositasi ila maydong'a qo'ymoqlariga rajo etmishdur..... Biz ham fikrimizni bayon edub, ba'zi savollariga javob beramiz, lekin bizning fikrimiz hammadan avval jadval bo'yladur" (1-jadval):

Ziyovuddin qori maktab va madrasalarning ayanchli ahvoliga kuyinib, maqola so'ngida Turkiston ulamolariga quyidalarni xitob qiladi: "Ey! Ustoz va ulamolar, endi vaqtni zoye' etmangiz, bizlarning va o'zlaringizning moziy va istiqbolimizni tushuningiz: kim eduk, na o'lduk, na o'lajag'miz, fikr eytingiz! Vatan va millat avlodining ta'lim-tarbiyati sizlarning hamiyat va g'ayratingizg'a bog'lidur"³.

Qayd etish lozimki, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi masalasida ulamolarning fikrlari turlicha bo'ldi. Ba'zilar eski usul barobarida yangi usul jadid maktablarining ham tarafdori edi. Ayrimlari esa jadid maktablariga tanqidiy fikr bildirdilar. Saidahmad Vasliy "Sadoi Farg'ona" gazetasida chop etilgan "Usuli jadid" maqolasida yangi usul eski o'qitish tizimidan afzal ekanligini sodda va tushunarli qilib quyidagicha bayon etadi: "Emdi yangi tartibda o'qitmoqni ma'nosi shulki, makta-

bga kirgan bolaga saboq berish bilan bir vaqtda xarflarni yozib ko'rsatur. Yangi tartibda o'qigan bola 4-5 oyda o'qimoq va yozmoqni o'rganur... " Vasliy ushbu maqolasida 10-12 yil o'qigan mul-lalar eng muhim ilmlardan bexabar qolganlik-larini ta'kidlash bilan birga, ularning madrasalarda o'rgangan bilimlari amaliy hayot ehtiyojlaridan juda uzoq bo'lganligi hamda jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilmay, amaliyotdan ajralib qolgani haqida ta'kidlagan edi⁴.

Davrning ziyolilaridan biri mulla Abdulg'afforxo'ja o'zining "O'quv va yozuvlarning haqiqiy boislari" nomli maqolasini ta'lim-tarbiya masalasiga bag'ishlaydi. Maqolada insonlarning ta'lim-tarbiya olishi nechog'lik muhim ekanligi ta'kidlanadi. Talabalarning yuqori darajada o'quv va yozuv salohiyatiga ega bo'lib, kamolotga erishishi zarurligini falsafiy fikrlar bilan tushuntiradi. Ong, aql va ilm insonlar bilan hayvonni bir-biridan ajratib turishini misol tariqasida keltirgan holda, ilmi va ilmsiz kishining farqini ko'rsatib berishga harakat qiladi: "O'quv va yozuvlarning insonlarg'a zarur ekanligi har kimga ma'lumdur, na uchunkim, o'quv va yozuv bilgan odam ila bilmagan odam miyonasida har vajdin osmon ila yercha farq bordur..."⁵.

Ta'lim islohotining otashin tarafdorlaridan biri Ishoqxon Ibrat ta'lim berish metodikasini zamon talablari darajasida o'zgartirishning ahamiyatini uqtirib: "... agar vijdon, insof ila muhokama qil-sak, tavaqqufsiz va taraddudsiz eski maktablarimizni asoslaridan yiqib, joylariga tartib va intizom bilan yangi usul domlalarining himoyasida bo'lgan maktablar bino etmak lozimdir. Eski maktabdolarimizni dehqonchilik hunarlariga sahv etmak muvofiqi haqiqatdir. Bu janobi mullalarga va eski-yangi domlalarimizga oxirgi so'zim"⁶, – deya ta'kidlaydi.

Ishoqxon Ibratning bu fikrlaridan olim U. Dolimov shunday xulosa chiqaradi: "Ibrat usuli hijo metodiga asoslangan eski maktablarni tuzatish yoki isloh qilish shiori bilan emas, aksincha ularni tag-tugi bilan tugatish va bunday maktablar o'rniga yangi, davr talablariga javob bera oladigan zamonaviy ilmlar o'rgatadigan usuli-savtiya meto-

¹ Jadidlar. Abdulmajid Qodiriy (Qodirov) // Shosh.uz.

² Djuraev D. Pedagogical features of the organization of education to increase the literacy of the Russian population of Turkestan region (second half of the XIX – beginning of the XX century) // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Vol.10, Issue 12, Desember 2020, India, ISSN 2249-7137 Impact factor SJIF 2020: 7.13. DOI 10.5958/2249-7137.2020.01858.3.

³ Ziyovuddinxo'ja. Insonning bir necha vazifasi va saodati //Al-Isloh, 1915, 17-son. –B.516.

⁴ Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi // T.: Akademiya, 2000. – B.166.

⁵ Al-Isloh jurnali, 1915 yil 8-son, B. 234.

⁶ Dolimov U. Avloniy – metodist olim // Milliy uyg'onish. –T.: Universitet, 1993. – B.17.

1-jadval. Jadid Ziyovuddin qorining 12-yilga mo'ljallangan o'quv yili taklifi

№	Peshindan avval	Peshindan so'ng
1	Birinchi yil – sarf	Odobi ta'lim va munozara
2	Ikkinchi yil – nahv	Tarixi umumiy
3	Uchinchi yil – nahv	Tarixi umumiy
4	To'rtinchi yil – mantiq	Hisob
5	Beshinchi yil – mantiq	Handasa
6	Oltinchi yil – hikmat	Hayot
7	Yettinchi yil – hikmat	Nujum
8	Sakkizinchi yil – balog'at	Aruz
9	To'qqizinchi yil – balog'at	Qofiya
10	O'ninchi yil – usul	Farz ul – ashara
11	O'n birinchi yil – usul	Ilmi qiroat
12	O'n ikkinchi yil – aqoid	Fiqh
13	O'n uchinchi yil – aqoid	Fiqh
14	O'n to'rtinchi yil – tafsir	Hadis
15	O'n beshinchi yil – tafsir	Hadis

diga asoslangan maktablar tashkil etish shiori bilan chiqdi. Eski maktabdollar, usuli qadim tarafdorlari Ishoqxon Ibratni "kofir", yangi usul maktablarini "kofirlar maktabi" deb e'lon qildi¹.

Ta'lim-tarbiya sohasining fidoyisi Mahmudxo'ja Behbudiy har bir muallim iqtidori va qiziqishiga mos fanlardan dars berishi zarur deb hisoblaydi. U vatandoshlarini, xususan, yoshlarni ilmu ma'rifatni egallashga chaqiradi, ayollarning ilm olish huquqini yoqlaydi, odamlarni o'qish-o'rganishga qiziqtirishning oddiy usullarini izlaydi².

Abdurauf Fitrat Turkistonni mustaqil taraqqiyot yo'liga olib chiqishning ikki yo'lini taklif etadi va bu g'oyani ro'yobga chiqarish yo'lida sobit qadamlilik bilan kurash olib boradi. Uning fikricha, mustaqillikka erishishning birinchi yo'li millatni, xalqni o'qimishli, ma'rifatli qilish, uning barcha qatlamlariga ziyo tarqatish, tarixan doimo ozod va mustaqil yashashga intilgan buyuk millat ekanligi ruhiyatini unga singdirish, dunyo xalqlari erishgan ma'rifat va madaniyatdan, ilmiy-texnik taraqqiyotdan bahramand bo'lish, odamlarda Vatan taqdiri va istiqboli uchun mas'ullik hissini uyg'otish, metropoliya iqtisodiyotiga xom ashyo yetkazib beruvchi makon bo'lib qolmaslikka chaqirish, uning uchun iqtisodiy tafakkur, fikrlash tuyg'usini sezishga uyg'otishdir. Ikkinchi yo'l esa – Turkistonning o'z milliy iqtisodiyotini vujudga keltirish orqali mustaqil iqtisodiyot asoslarini qurish, jahon iqtisodiyoti bilan iqtisodiy tenglik va manfaatlilik tamoyili asosida hamkorlikka, integratsiyaga kirishishdir.

¹ O'sha manba.

² Behbudiy M. "Sayohat xotiralari", // Oyna, 1914, 20 sentyabr, №48.

Tadqiqotning maqsadi.

O'lka ziyolilari va ulamolari mamlakatni obodonlashtirish, madrasa, maktab va masjidlarni ta'mirlash ishlariga alohida e'tibor berdilar. Ayniqsa, xalqni madrasalarni avaylab, ko'z qorachig'idek asrashga da'vat etdilar. Chor ma'murlari ma'rifatparvarlarga qarshi izchil va tizimli kurash olib bordilar. Ularning ruhiyatini, kelajakka ishonchini sindirishga, islohiy g'oyalaridan qaytarishga urindilar. Xususan, chor ma'murlaridan Volkov hamda Narishkin chorizmga qarshi maqolalar yozmaslikni talab etib Munavvar Qoridan quyidagi tilxatni yozdirib olishgan edi: "Al-Isloh" jurnalini nashr etishda ishtirok etib, uning sahifalarida chorizm manfaatlariga zid, xususan, "Bonklar xususidagi savolga javob"ga o'xshash maqolalarni joylashtirsam, men Turkiston o'lkasidan surgun qilinadurman. Munavvar Qori Abdurashidxon o'g'li"³.

Jadidlarning jamiyat oldida qilgan buyuk xizmatlaridan yana biri shunda bo'ldiki, ular tomonidan tashkil etilgan Maorif jamiyatlari millat bolalari ta'lim-tarbiyasini yangicha asosda qurish yo'liga xizmat qildi. Jumladan, Andijonda tashkil etilgan "Havaskoroni maorif jamiyati" doirasidagi yig'ilishlarda eski usul maktablarini isloh qilishning istiqbollari belgilandi. Ushbu jamiyat tomonidan chop etilgan maqolalarning birida o'lka xalq ta'limini tashkil etish va takomillashtirish haqida quyidagi fikrlar bildiriladi: "... bu jamiyatning maqsadi Turkiston musulmonlarini taraqqiy, madaniy millat bo'lib yashamoqligi uchun sa'y-

³ Ahmedov S. Yo'l boshchi. Munavvar Qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar // T.: Ma'naviyat, 2003. – B.34.

qo'shish, ijthod aylab, jamiyat tarafindin xususiy maktablar ochib, shul maktablarda g'arib bechora bolalarni tarbiya qilub, ovqatlarini berub, o'qituv, umumiy odamlar foydalanmog'i uchun qiroatxona ochub, har turli risolalar, kitoblar nashr qilur

Madrasalarda yotmish mustahiq (munosib, haqli, loyiq) g'arib bechora shogirdlarga ushbu jamiyat tarafindin moddiy va ma'naviy yordam yetkazilur. Saxovatlu afandilarimizdin o'tunub iltimos qilurmizki, shul yoki taraqqiyparvarlar ochmish "Havaskoroni maorif" jamiyatina mumkin qadar moddiy va ma'naviy yordamda bo'lsalar edi... Millatga hech bir foydasi yo'q, faqat behuda isrofdan iborat ba'zi to'ylarda farz, vojib qatorida odatlanmish karnay-surnay, bachcha o'ynatish, uloq va munga o'xshash isrofotlarga ko'ngildan chiqarmish aqchalarni, muhtaram to'y sohiblari shunga o'xshash millatga foydali, manfaatli jamiyatlarga sarf qilsa, naqadar savob bo'lur edi"¹.

O'lka ziyolilari va ulamolarini birlashtirishga, xalqni savodli qilishga undagan jamiyatlardan yana biri "Sho'royi islomiya" jamiyatidir. Ammo bu jamiyat a'zolari o'rtasidagi ziddiyatlar natijasida butunlay ulamolar manfaatiga xizmat qiluvchi "Sho'royi ulamo" jamiyati tuzildi. Bunday tarafkashliklar ilg'or taraqqiyparvarlarning g'azabini qo'zg'adi. Mahalliy jurnallarning birida Bahridin Azmiyning "Muhtaram umumiy Sho'royi islom idoralaridin iltimos" nomli she'rida shu haqda so'z boradi. Shoir Turkiston ulamolariga xitob qilib, millatni "bir tan-u bir jon" bo'lishga chorlaydi. "Sho'royi islomiya" jamiyatidan bu ishni amalga oshirishni iltijo qiladi. Shoir olis tarix misolida o'zaro nizo va janjallarning Vatan va millat taqdiridagi fojiali oqibatlarini yodga olib, millatning, xalqning hayot-mamoti hal bo'layotgan shunday mas'ul bir paytda ittifoqning suv va havodek zarur ekanligi haqida ogohlantiradi².

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati.

O'lka xalqlariga nisbatan tazyiqlarga qarshi turish uchun bilimli bo'lish zarurligini yaxshi anglagan jadidlar xalqni savodli qilish uchun yangi maktablar tashkil etishga urindilar. Jadidchilik harakati va g'oyalari Xiva ziyolilarining ham faoliyatiga kirib bordi. Ularning mamlakatni isloh qilish haqidagi g'oyalarida maorifga alohida e'tibor qara-

tildi. Xususan, Sayid Islomxo'janing islohot dasturi 9-bandi "O'quv to'g'risida" deb nomlanib, unda yangi usul maktablar ochish, ularda dunyoviy fanlarni o'qitish zaruriyati alohida qayd etilgan. Sayid Islomxo'janing bevosita rahbarligida va moddiy ko'magida Xivada yangi usul maktablari ochilgan. Maktablarda ishlash uchun tatar millatiga mansub muallimlar taklif qilingan³.

Xiva jadidlarlarining ilg'or vakillaridan biri Husayn Qo'shayev 1904 yil 10 noyabrda Xivada yangi maktab ochdi. Unda dastlab 14 nafar o'quvchiga ta'lim bergan bo'lsa tez orada o'quvchilar soni 55 nafarga yetgan. 1911 yilda Xivada ochilgan yana bir yangi usul maktabida 70 nafar o'quvchi tahsil olgan. Jadid maktablarida ishlagan Komila Qo'shayeva, Yusuf Ko'mach o'g'li Ahmedov, Muhammadsharif Xudoyberganov kabi muallimlar xonlikdagi siyosiy-ma'rifiy harakatlarda faol ishtirok etishgan. Xonlikning qozi kaloni Bobo'xon Salimov va Turkiyaning Istanbul shahrida ta'lim olgan Mulla Bekjon Rahmonov hamkorlikda jadid maktablari uchun "Alifbo" va "O'qish kitobi" kabi darsliklar yaratishgan. Jadid maktablari va ulardagi o'qituvchilarning aksariyati asosan turk, tatar, boshqird millati vakillari bo'lib, ularning ko'pchiligi Xiva shahrida faoliyat yuritishgan. Xonlik hududida keng yoyilgan jadidchilik harakati markazi Xiva shahri bo'lib, bu harakat natijasida yangi usul maktablari ish boshlab, shaharda maorif ishlari jonlangan.

Xiva xoni Muhammad Rahimxon II (Feruz) ning o'zi hukmdor va sarkarda, fan va madaniyat arbobi, iste'dodli shoir, adabiyot va san'at muxlisi va homiysi edi. Feruz hukmronligi davrida Xiva xonligida ma'naviy va madaniy sohada ko'pgina ijobiy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, xonlikda tarjimonlik, tarixnavislik maktablariga asos solindi. Adabiyotshunoslik, she'riyat, kitobat, matbaa, noshirlik ishlarida misli ko'rilmagan muvaffaqiyatlarga erishildi, musiqa va masxarabozlik san'ati rivojlandi, jahon yangiligi bo'lmish foto va kinooperatorlik shakllandi, maorif sohasida

¹ Idora // AI – Isloh. 1915 yil 24-son, 1917 yil 8 – son.

² Pardayev Q. U. "Milliy uyg'onish davri manbalarida adabiy va publisistik muammolar talqini ("Al-Isloh" jurnali materiallari asosida)", f.f.n. dissertatsiyasi // T.: -2008. – B.103.

³ Djuraev D. The influence of foreign pedagogical school on the historical development of public education in colonial Turkestan (late 19th - early 20th century) // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), <https://www.tarj.in>, Vol 10, Issue 2, February, 2021, ISSN: 2278-4853, Impact Factor: SJIF 2021 = 7.699, DOI: 10.5958/2278-4853.2021.00070.7.

ko'pgina ijobiy ishlar va islohotlar amalga oshirildi¹. 1874 yilda Xiva xonligida matbaachilikning paydo bo'lishi, toshbosma usulida kitoblar chop etishning yo'lga qo'yilishi natijasida maktab o'quvchilari va madrasa talabalarining ta'lim olish imkoniyatlari bir qancha kengaydi. Yangi usul maktablari va ular negizida vujudga kelgan jadidchilik harakatini yoshlar ongiga singdirishda "Yosh xivaliklar" harakati a'zolari faol ishtirok etdilar.

Xiva xonligida jadidchilik ikki oqimdan tashkil topib, uning o'ng oqimi bosh vazir Islomxo'ja boshchiligida xonlikdagi savdo-sanoat korxonalarini egalari hamda yirik boylarning vakillarini birlashtirdi. Mazkur oqim mamlakatda xon hokimiyatini saqlab qolgan holda, islohotlar o'tkazishni maqsad qilib qo'ydi. So'l oqim esa qozikalon Boboovun Salimov rahbarligida sarmoyadorlar, hunarmandlar va boshqa tabaqa vakillarini birlashtirib, yangi usul maktablari tashkil qilish orqali xalq ommasining siyosiy faolligiga erishish yo'lida harakat qildi.

Asfandiyorxon hukmronligi davrida vazirlik qilgan Sayid Islomxo'ja ma'rifatparvar shaxs bo'lib, mamlakat taraqqiyoti yoshlarning bilimi va ma'rifatiga bog'liq deb bilgan, shuning uchun u yoshlarga zamonaviy bilim asoslarini beruvchi yangi usul va rus-mahalliy maktablarini ochishga harakat qilgan. Tadqiqotchi M.Qayumovning ma'lumotiga ko'ra, 1911 yil yanvar oyida Sayid Islomxo'ja Turkiston general - gubernatori huzuridagi diplomatik amaldorga Xivada yangi usul maktabi – gimnaziya ochmoqchiligini bildirib ruxsat so'raydi. Bu haqda diplomatik amaldor Turkiston general-gubernatoriga: "Islomxo'ja Xivada nafaqat xon va amaldorlarning bolalari bilim oladigan, balki boshqa xivalik yoshlar ham bilim olish imkoniyatiga ega bo'ladigan maktab ochish niyatida unga murojaat etib, yoshlarga zamonaviy fanlar o'qitilsa, mamlakatning taraqqiyotiga foydali bo'ladi"² – degan fikr bildirganligini bayon etadi. Islomxo'ja maorif va taraqqiyot tarafdori bo'lganligining yana bir isboti shundaki, u o'z hisobidan o'sha davr puli hisobida 30 000 so'mlik sarmoya sarf qilib, Yevropa uslubida ikki qavatli maktab binosi qurdirgan. Bu maktabda ta'lim berish uchun Rossiyadan ikki nafar muallim,

tahsil olish uchun yuzdan ziyod o'quvchi jalb qilingan. Maktabda dunyoviy bilimlar berish bilan birga, ta'lim olayotgan bolalarga kitob, qog'oz, qalam va boshqa o'quv qurollari ham bepul tarqatilgan. Islomxo'janing moddiy ko'magi bilan yana bir qancha yangi usul maktablari tashkil etilib, ularda dars berish uchun tatar muallimlari taklif etilgan. Tatar muallimlar Xiva xonligida ta'lim ishlari bilan birga, mahalliy aholi siyosiy ongini o'stirish yo'nalishidagi siyosiy ishlar bilan ham shug'ullanardilar.

Jadid ma'rifatparvarlar harakatlari natijalari:

Umuman, jadidlarning yangi usul maktablarini tashkil etishga oid sa'yi-harakatlarini o'rganish asosida quyidagi xulosaga kelish mumkin. Ushbu davrda jadid ma'rifatparvarlari tomonidan quyidagilarga erishildi:

- yangi usul maktablari uchun yaratilgan darsliklarda milliylikni ta'minlashga, fan yangiliklarini yoritishga alohida e'tibor berildi;
- usuli maddiya va usuli savtiya qo'llanishiga erishildi;
- ta'limda xorijiy ilg'or tajribalardan foydalanildi;
- ta'limda zamonaviylik, faollik va tolerantlik g'oyalariga tayanildi;
- usuli savtiya metodiga asoslangan analitik tovush uslubini dars jarayoniga tatbiq etildi;
- o'qitishga ko'rgazmalilik uslubi joriy qilindi (bu ko'proq Munavvar qori va Abdulla Avloniy faoliyati bilan aloqador);
- og'zaki va yozma nutq o'stirish masalalarini maktab jarayoniga olib kirdi (bu ko'proq Mahmudxo'ja Behbudiyning "Kitobat ul-atfol" va Fitratning "O'quv" kabi darsliklarida o'z ifodasini topdi);
- tushunib, ifodali o'qish masalalariga alohida e'tibor berildi (Abdulla Avloniy o'quvchilarning deklomatsiyalarini birinchi bo'lib Riganing "Grammofon" firmasidan chiqqan plastinkalarga yozdirdi va ta'lim amaliyotida ulardan foydalandi).

Xulosalar.

Jadid ma'rifatparvarlar mustaqillikka erishish uchun xalq ta'limini tubdan isloh qilish lozim deb hisobladilar. Ular xalq ta'limini isloh qilishda yangi usul maktablari tashkil etish, kutubxona, o'quv zallari ochish, kitob va darsliklar chop ettirishga qaratilgan pedagogik faoliyatlari bilan o'rnak ko'rsatdilar. O'sha davrda har tomondan ta'qib etilgan ma'rifatparvarlarning chorizm tuz-

¹ Abdurasulov A. Xiva "tarixiy-etnografik ocherklar". - T.: O'zbekiston, 1997. – B. 4-7, B. 34-35.

² Djuraev D., Influence of German universities on increasing the literacy of youth in Turekstan // German international scientific journal (DNB, WorldCat, Ulrich, DOI), №14 2021, DOI: 10.24412/2701-8369-2021-14-27-28, B. 27-28.

miga qarshi fikrlar bildirishini katta matonat va xalq turmushi va ma'naviyatini o'stirishga qaratilgan fidoyilik sifatida baholash lozim. Zero, bunday fidoyilik tufayli ular nafaqat o'zini, balki yaqinlarining ham hayotini xavf ostiga qo'yishga majbur bo'lishgan. Qayd etish lozimki, ulamolarning yosh avlod ta'lim-tarbiyasi masalasidagi fikrlari o'zaro ziddiyatli bo'lib, ularning ba'zilari eski usul barobarida yangi usul jadid maktablarining ham tarafdori edi. Ayrımlari esa jadid maktablariga nisbatan

tanqidiy munosabatda bo'lishgan. Ammo bu ikki yo'nalishni birlashtiruvchi kuch maslakdagi birlik, ya'ni Turkistonning mustaqillik g'oyasi bo'ldi. Mustaqillikni qo'lga kiritishning yagona yo'li xalqning savodlilik darajasini ko'tarish orqaligina amalga oshirilishi mumkinligini anglagan ma'rifatparvarlar xalq ta'limini isloh qilishga katta umid bog'lashgan edi. Ular Turkiston hududi ilk yangi usul maktablarining shakllanishiga asos soldilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Abduazizova N. Turkiston matbuoti tarixi // T.: Akademiya, 2000. – B.166.
2. Abdulhakim Nurboy Ma'rifat nimadir. Jaholat nimadir? // Tafakkur. – Toshkent, 2005, 3-son. – B. 10-15.
3. Abdurasulov A. Xiva "tarixiy-etnografik ocherklar" // T.: -O'zbekiston, 1997. – B.4-7, B. 34-35.
4. Alimova D.A. Djadidizm v Sredney Azii. Puti obnovleniya, reformy, borba za nezavisimost // T.: "Uzbekistan", 2000. – B. 5.
5. Abdulhakim Nurboy Biz qanday millatmiz? // Tafakkur. – Toshkent, 2005, 2-son. – B. 15.
6. Ahmedov S. Yo'lboshchi. Munavvar Qori Abdurashidxonov. Tanlangan asarlar // T.: Ma'naviyat, 2003. – B.34.
7. Al-Isloh jurnali, 1915 yil 8-son, B. 234.
8. Behbudiy M. "Sayohat xotiralari", // Oyna, 1914, 20 sentyabr, №48.
9. Djuraev D. Turkiston an'anaviy maktablari faoliyati tarixidan (XIX asr ikkinchi yarmi) // "Zamonaviy ta'lim" jurnali, 7-son, 2017. B. 17-23.
10. Djuraev D. The influence of foreign pedagogical school on the historical development of public education in colonial Turkestan (late 19th - early 20th century) // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), <https://www.tarj.in>, Vol 10, Issue 2, February, 2021, ISSN: 2278-4853, Impact Factor: SJIF 2021 = 7.699, DOI: 10.5958/2278-4853.2021.00070.7.
11. Djuraev D., Influence of German universities on increasing the literacy of youth in Tuekestan // German international scientific journal (DNB, WorldCat, Ulrich, DOI), №14 2021, DOI: 10.24412/2701-8369-2021-14-27-28, B. 27-28.
12. Djuraev D. Pedagogical features of the organization of education to increase the literacy of the Russian population of Turkestan region (second half of the XIX – beginning of the XX century) // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, Vol.10, Issue 12, Desember 2020, India, ISSN 2249-7137 Impact factor SJIF 2020: 7.13. DOI 10.5958/2249-7137.2020.01858.3.
13. Dolimov U. Avloniy – metodist olim // Milliy uyg'onish. –T.: Universitet, 1993. – B.17.
14. Jadidlar. Abdulmajid Qodiriy (Qodirov) // Shosh.uz.
15. Idora // Al – Isloh. 1915 yil 24-son, 1917 yil 8 – son.
16. Pardayev Q. U. "Milliy uyg'onish davri manbalarida adabiy va publisistik muammolar talqini ("Al-Isloh" jurnali materiallari asosida)", f.f.n. dissertatsiyasi // T.: -2008. – B.103.
17. Ziyovuddinxo'ja. Insonning bir necha vazifasi va saodati //Al-Isloh, 1915, 17-son. – B.516.
18. Vasliy Saidahmad, //Al-Isloh, 1916 yil 5-son, 1915 yil 13-son.
19. O'z.R. MDA, fond R-461, 1 jild, 1260 ish, 22 varaq.